ISSN: 3060-4613

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI




13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha)
13.00.07 Ta'limda menejment
13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari


№7
2025

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiyaga fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

*Elektron nashr. 202 sahifa,*
*1-iyul, 2025-yil.*

**BOSH MUHARRIR:**
**Umarova H. O'. –** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi

**BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**
**Karimova E'zoza Gapirjanovna –** Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti rektori
**Ibragimova Gulsanam Ne'matovna** – Pedagogika fanlari doktori, professor

***TAHRIRIYAT KENGASHI A`ZOLARI***
***Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik***
***Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik***
***Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor***
***Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Shermuhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor***
***Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)***
***Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)***
***Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)***
***Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)***
***Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)***
***Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)***
***Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent***
***Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor***
***G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)***
***Somurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent***
***Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent***
***Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti***
***Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor***
***Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)***
***Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),dotsent***
***Doniyorov S. M. –"Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)***
***Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent***
***Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori***
***Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'icha falsafa doktori (PhD)***
***Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari***
***Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)***

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ
Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

**EDITOR-IN-CHIEF:**
**Umarova H. O‘. –** Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

**DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**
**Ibragimova Gulsanam Ne’matovna** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
**Karimova E’zoza Gapirzhanovna** – Rector of the Nizami National Pedagogical University of Uzbekistan

***EDITORIAL BOARD MEMBERS:***
***Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician***
***Shoumarov G‘. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician***
*Qirg‘izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor*
***Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Shermuhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Ma’murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor***
***Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)***
***Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)***
***Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)***
***Rejep O‘zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)***
***Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)***
***Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)***
**Mizayeva F. O.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
***Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor***
***Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)***
***Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor***
***Mirzayeva F.O. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor***
***Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service***
***Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor***
***Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)***
***Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor***
***Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)***
***Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor***
***Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics***
***Ashurov R. R. – doctor of philosophy (PhD) in psychology***
***Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region***
***Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences***

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan:
Pedagogika fanlari bo‘yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:
• Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
• Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)
Psixologiya fanlari bo‘yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):
• Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
• Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

# MUNDARIJA

Konvergent tahririyat mas'uliyati: Yangi O'zbekistonni barpo etish jarayonini yoritish tendensiyalari ......... 16
Doniyorov Salim Musurmonovich

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy bilimlarini shakllantirish ......... 23
Nazarov Odil Omanqulovich

"Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi"da ijtimoiy-pedagogik hamkorlikning o'rni ......... 27
Abirova Umida Nazarovna

Maktabgacha yoshdagi bolalarda uchraydigan nutq nuqsonlarini oldini olish va uning ahamiyati ......... 30
Akramov Dostonbek Ikromjon o'g'li

Pedagogik jarayonda axloqiy qarashlarni shakllantirish usul va vositalari ......... 34
Xudoykulova Shaxlo Mamaniyozovna

Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarining ijodkorligini rivojlantirishda ta'limiy o'yinlarning ahamiyati ......... 38
Salimova Dilmira Farxodovna

Aholining iqtisodiy axborot savodxonligini oshirishdagi muammo va kamchiliklar ......... 41
Rajabov Asliddin Xolmirzayevich

Favqulodda vaziyatlar yo'nalishi ta'limida muloqotning ahamiyati ......... 44
Boltayev Baxtiyor Yunusovich

Biologiya ta'limi va raqamli texnologiyalar ......... 48
E. Po'latova

Boshlang'ich ta'limga tayyorlov guruhi bolalarini kasbga yo'naltirishda stem yondashuvining ahamiyati ......... 51
Egamova Ravshanoy Surobjonovna

O'zbekiston TIMSS natijalarini qanday yaxshilashi mumkin? Innovatsion ta'lim yondashuvlari va samarali strategiyalar ......... 55
G'aynidd inov Shayxislom Tolibjon o'g'li

Nutq kamchiliklarini bartaraf etishda mutaxassislar hamkorligi ......... 60
Isayeva Mushtariy Alisher qizi

Developing Student's Critical Skills Through Technology-Enhanced English Lessons ......... 63
Mavlonova Dildora Shuxrat qizi

Bahrom Ro'zimuhammad she'rlarini o'qitishda integratsiya usulidan foydalanish ......... 67
Nomozova Dilobar Suyun qizi

Aksiologik yondashuvlar asosida bo'lajak pedagoglarda altruizm ko'nikmalarini shakllantirish: bosqichlar va tamoyillar ......... 72
Norboyeva Moxigul Shavkat qizi

3D Modeling of Virtual Chemical Laboratories ......... 75
Qayumov Jamshid Ma'rufjon o'g'li

Fostering Metacognitive Skills in Efl Learners Through Ai-Supported Instruction: a Review of Recent Literature ......... 80
Ruzieva Maftuna

Onlayn va gibrid ta'lim sharoitida mashinasozlik texnologiyasi faniga qiziqishni oshirishning nazariy asoslari ......... 85
Sarimsakova Soxibaxon Raxmonjanovna

Loyihalashtirilgan integral darslar samaradorligi (9-sinflar uchun "Metallar va ularning umumiy xususiyatlari" mavzusida) ......... 88
Sharipova Hakima Shavkatovna

Metacognition and Self-Regulated Learning ......... 92
Turayeva Nazira Ibragimovna

Методические возможности совершенствования обучения научной письменной речи на основе коммуникативно-деятельностного подхода ......... 95
Меденцева Наталья Петровна

Transformatsion jarayonlarda tibbiyot oliy ta'lim muassasalari raqobatbardoshligini oshirish strategiyalari ......... 100
Jonibekov Jasur Jonibekovich

O'zbek milliy musiqasi: boy madaniyat va san'atning ajralmas qismi ........ 105
Rustamova Maxsuma Farxodbek qizi

Sharq va G'arbda tibbiyot fanlarining yaratilishi tarixi ........ 108
Bakayev Najmiddin

Didaktik o'yinlar bola faoliyatining asosiy vositasi sifatida ........ 112
Egamova Madina Qobil qizi

Tibbiyot oliy ta'lim muassasalari talabalarining konvergent-kreativ tafakkurini takomillashtirishning didaktik asoslari ........ 116
Egamova Shukriya Amanovna

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida universal ta'lim faoliyatlari orqali tarbiyaviy maqsadlarga erishish imkoniyatlari ........ 119
G'aybullayeva Nafisaxon Nosirjon qizi

Matematika o'qitishning klassik metodlaridan zamonaviy usullariga o'tish ........ 124
G'ofurov Jamoliddin Xusniddinovich

Jahon miqyosida maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari ........ 128
Hoshimova Dilnoza Boymirzoyevna, Mahmudova Zulfiya Homidovna

Bo'lajak o'qituvchilarning prognostik kompetensiyasini rivojlantirish tamoyillari ........ 131
Ikromova Munisa Sheraliyevna

Bo'lajak muhandislarni kasbiy tayyorgarligini grafik ma'lumotlar asosida oshirishning didaktik asoslari ........ 134
Jumanazarova Zuhra Qosimjonovna

Sport va jismoniy tarbiya pedagogikasida innovatsion metodlar ........ 138
Jumanova Iroda Shokirjon qizi

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish ........ 141
Jumayeva Sarvinoz Ilhombekovna

Talabalarda nutqiy tarkibiy tuzilmalarni shakllantirish texnologiyasi ........ 145
Kiyamova Maxbuba Sultanovna

Innovatsion yondoshuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining fikrlash qobiliyatini rivojlantirishning amaliy jihatlari ........ 148
Mamadiyorov Jamol

Ingliz tili matnlarini o'rganishda 6-sinf o'quvchilarining grammatik kompetensiyasini oshirish va tatbiq qilishning samarali usullari ........ 152
Sharipova Firuza Mehriddinovna

Kar va zaif eshituvchi yuqori sinf o'quvchilarining axborot kompetensiyasini rivojlantirish modeli ........ 155
Tursunov Hojiakbar Hamidullo o'g'li

Maktabgacha ta'limda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim – pedagogik muammo sifatida ........ 159
Xallokova Maksudaxon Ergashevna

Altruistik xulq-atvorning shaxsiy va ijtimoiy determinantlari ........ 162
Xatamova Ferangiz Ibodulloyevna

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik mahoratini teatr pedagogikasi vositalari orqali rivojlantirishning xorijiy va milliy tajribasi ........ 166
Xudoyberganova Matluba Qulsoxatovna

Refleksiv yondashuvning ta'lim jarayonidagi o'rni va afzalliklari ........ 170
Yodgorova Gulrux Farhodovna

Совершенствование методики формирования компетентности будущих студентов-искусствоведов в условиях цифрового образования ........ 174
Юлдашев Эргаш Сабирович

O'z-o'zini rivojlantirish tushunchasi va uning pedagogik mohiyati ........ 177
Kudenov Temurbek Maxsetbaevich

Boshlang'ich sinf o'qish darslarida hikoya janrini o'qitishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish dolzarb muammo sifatida ........ 180
Ergasheva Shoxida Nurmuxammadovna

Ingliz tili darslarini interaktiv tashkil etishda raqamli ta'lim vositalarining o'rni va metodik yondashuvlar ........ 185
Raxmatullayeva Barno Baxtiyor qizi

The Effectiveness of Using Podcasts to Enhance Listening Comprehension and Vocabulary Acquisition in Secondary School English Classes ........ 189
Meliboyev Zuxriddin Isroil ugli

O'zbekiston tarixi darslarida pedagogik improvizatsiyani texnologiyalashtirish va raqamlashtirish imkoniyatlari ........ 192
**Ergasheva Muhayyoxon G'anijonovna**

Tasviriy faoliyat vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarning badiiy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning samaradorligi ........ 196
**Arslanova Umidaxon Komiljon qizi**



# O'ZBEKISTON TARIXI DARSLARIDA PEDAGOGIK IMPROVIZATSIYANI TEXNOLOGIYALASHTIRISH VA RAQAMLASHTIRISH IMKONIYATLARI

Ergasheva Muhayyoxon G'anijonovna
Andijon davlat pedagogika instituti
Tarix kafedrasi v.b. dotsenti (PhD)
**ORCID: 0009-0008-2284-4892**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada pedagogik improvizatsiya tushunchasi, uning mohiyati va O'zbekiston tarixini o'qitishda zamonaviy ta'lim jarayonidagi o'rni tahlil qilinadi. Shuningdek, pedagogik improvizatsiyani texnologiyalashtirish va raqamlashtirish imkoniyatlari, usullari hamda cheklovlari ko'rib chiqiladi. Maqolada sun'iy intellekt, raqamli platformalar va interaktiv texnologiyalar yordamida o'qituvchining ijodiy yondashuvini qo'llab-quvvatlash yo'llari asoslab berilgan.

**Kalit so'zlar:** pedagogik improvizatsiya, raqamlashtirish, texnologiyalashtirish, sokratik dialog, interaktiv ta'lim, sun'iy intellekt.

**Abstract:** This article explores the concept of pedagogical improvisation, its essence, and its role in the modern educational process when teaching the history of Uzbekistan. It also examines the opportunities, methods, and limitations of technologizing and digitalizing pedagogical improvisation. The article substantiates ways to support the teacher's creative approach through artificial intelligence, digital platforms, and interactive technologies.

**Key words:** pedagogical improvisation, digitalization, technologization, Socratic dialogue, interactive learning, artificial intelligence.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается понятие педагогической импровизации, её сущность и значение в современном образовательном процессе при преподавании истории Узбекистана. Также анализируются возможности, методы и ограничения технологизации и цифровизации педагогической импровизации. В статье обоснованы пути поддержки творческого подхода преподавателя с использованием искусственного интеллекта, цифровых платформ и интерактивных технологий.

**Ключевые слова:** педагогическая импровизация, цифровизация, технологизация, сократический диалог, интерактивное обучение, искусственный интеллект.

## KIRISH

Yoshlarga vatanparvarlik va o'zlikni anglash tushunchalarini singdirishda ta'lim jarayonining uzviy munosabatlari mavjud bo'lib, zamonaviy ta'lim jarayoni o'quvchi shaxsining faol, mustaqil fikrlovchi va ijtimoiy mas'uliyatli bo'lib yetishishini taqozo etadi. Bu esa o'qituvchidan nafaqat bilimlarni yetkazish, balki vaziyatga qarab moslashish, ijodkorlik va noan'anaviy yechimlar topish ko'nikmalarini ham talab qiladi. Ana shu nuqtada pedagogik improvizatsiya tushunchasi muhim o'rin tutadi.

Improvizatsiya (lotincha improviso – "tayyorgarliksiz") – bu ijodiy faoliyatning bir turi bo'lib, unda yechimlar yoki pedagogik vositalar bevosita ta'lim jarayonining o'zida vujudga keladi. An'anaviy qarashlarga ko'ra, improvizatsiya faqat o'qituvchining shaxsiy tajribasi va hissiyotlariga tayanadi. Ammo bugungi raqamli transformatsiya sharoitida pedagogik improvizatsiyani texnologiyalashtirish va raqamlashtirish haqida so'z yuritish dolzarb bo'lib bormoqda. Ayniqsa, hozirgi ta'lim talablaridan kelib chiqib, o'qituvchining ta'lim jarayonini uzviy ravishda ijodiylik va ilmiylik asoslari bilan bog'lashi, buning zamirida esa talabalarni vaziyatlarga moslashish, jarayonni boshqaruvchanlik bilan olib borishga imkon yaratishi muhim ahamiyat kasb etadi. Interaktiv ta'lim metodlari bugungi kunda keng qo'llanilib, dars jarayonining sifati va samaradorligini oshirishda muhim rol o'ynamoqda.

Interaktiv ta'lim – bu o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida ikki tomonlama faol muloqotga asoslangan yondashuv bo'lib, unda o'quvchi bilim oluvchi emas, balki faol ishtirokchi sifatida maydonga chiqadi. Bu usul orqali o'quv-

chining mustaqil fikrlashi, jamoada ishlashi, o'z fikrini asoslab bera olishi va qaror qabul qilish ko'nikmalari rivojlanadi. Shu boisdan, innovatsion yondashuvlar va interaktiv metodlarning uyg'unligi ta'lim sifatini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Interaktiv metodlarning qo'llanilishi ta'lim sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Dars jarayonida o'quvchilarning ishtiroki ortadi, ular passiv tinglovchi emas, balki faol ishtirokchiga aylanadi. Bu esa bilimlarning ongli o'zlashtirilishiga xizmat qiladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, interaktiv metodlar bilan o'tilgan darslarda o'quvchilarning baholari, darsga bo'lgan munosabati va ishtiroki yuqori bo'ladi. Ayniqsa, muammoli vaziyatlarda qaror qabul qilish, tanqidiy fikrlash, ijodiy yondashuv kabi kompetensiyalar shakllanadi. Har qanday murakkab zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, integratsiyalar, fan sohasidagi olamshumul yangiliklar, raqamli tendensiyalar, avvalo o'qituvchi tomonidan o'zlashtirilib, so'ngra uning bilimi, saviyasi, qobiliyati evaziga talabalar ongiga va tafakkuriga yetkaziladi. Yildan yilga o'qituvchining kasbiy faoliyatiga nisbatan talablar kuchaymoqda. Bu – hozirgi zamon talabi.

Demak, o'qituvchiga nisbatan qo'llaniladigan "pedagogik mahorat" atamasi hech qachon o'z mavqeini yo'qotmaydi, balki tobora takomillashib, boyib va zamon talablariga mos o'zgarib boraveradi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Rossiya Davlat san'at instituti katta o'qituvchisi D. B. Blyudov "Педагогическая импровизация на уроках сценической речи" nomli ilmiy maqolasida nutq bilan bog'liq fanlardagi pedagogik improvizatsiyaning ahamiyatini keng tahlil etib bergan. Uning ilmiy tahlillarida san'at va ijtimoiy-gumanitar fanlarda, aniq va tabiiy fanlarga nisbatan, improvizatsiya jarayoniga ehtiyoj kuchli bo'ladi. Zero, dars jarayonida, ayniqsa tarix fanida, zamon, makon va tarixiy shaxslarning ijtimoiy qiyofasiga oid tasavvurlarni yaratish zarurati yuzaga keladi.

Ayni ushbu masala yuzasidan rus olimasi E. P. Turbinaning "Роль педагогической импровизации в процессе педагогического творчества будущего учителя" nomli ilmiy maqolasida pedagogik improvizatsiya – pedagogikadagi ijodkorlikni ochuvchi, rag'batlantiruvchi jarayon sifatida yoritiladi. Olimaning fikricha, bu nafaqat darsga tayyorgarlik, balki rejani amalga oshirish, aniqlashtirish va takomillashtirish jarayonida ham darsning pedagogik dizayniga kiritilgan usullar, mazmun va o'quv maqsadlari, ta'lim hamda reabilitatsiya vaziyatlari talablariga muvofiq tahlil etilishi lozim. Shuningdek, ushbu masala yuzasidan rus olimlari – Slastenin Vitaliy Aleksandrovich, Isaev Ilya Fyodorovich va Shiyanov Yevgeniy Nikolayevich muallifligida tayyorlangan "Педагогика: учебное пособие" o'quv qo'llanmasida aynan ta'lim metodlarining jarayonga moslashtirilishi va ularning to'liq shaxsga yo'naltirilishi ilmiy asosda tahlil etilgan. Ushbu jarayonning uslubiy jihatlariga alohida e'tibor qaratilgan.

XXI asrga qadar faqat san'at sohasi o'qitilishida muhimlik kasb etgan improvizatsiya metodlari bugun ta'limning barcha sohalari uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan tushunchaga aylanib bormoqda. Ayniqsa, filologiya sohasidagi ta'lim jarayonida improvizatsion yondashuvlar Ukraina Davlat Pedagogika Universiteti o'qituvchisi Alla Vinnichukning "Pedagogical Improvisation in Forming Professional Competence of the Future Teachers-Philologists" mavzusidagi ilmiy maqolasida batafsil tahlil etilgan.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Pedagogik improvizatsiya – bu oldindan rejalashtirilmagan, o'qituvchining vaziyatga qarab o'quvchilar bilan hamkorlikda yechim topish jarayonidir. Tarixiy jarayonlarni tushunish va uning mohiyatini anglash – talabalarda bilim salohiyatini oshirishning muhim jihati hisoblanadi. Shundan kelib chiqib, pedagogik improvizatsiya quyidagi jihatlar bilan tavsiflanadi:

- vaziyatga yo'naltirilganlik;
- moslashuvchanlik va ijodiy yondashuv;
- o'quvchilarning faolligini rag'batlantirish;
- natijaning oldindan noma'lumligi.[1]

Ayniqsa, O'zbekiston tarixini o'qitishda improvizatsion usullar sifatida sokratik suhbat, evristik va muammoli metodlar, o'yinli yondashuvlar misol bo'la oladi. Masalan, "Tasviriy taraqqiyot" metodi asosida qurilgan savol-javoblar orqali o'qituvchi talabalarda davrlar orasidagi farqli tasviriy faoliyat orqali zamonaga xos mustaqil fikrlashga yo'naltiradi.

O'qituvchilar ham bu metodlarni qo'llab, o'z pedagogik faoliyatini diversifikatsiya qiladi, ya'ni darslarni yanada jonli, dinamik holatga keltiradi. Jarayonga improvizatsion yondashish va interaktiv metodlar orqali o'quvchilarda o'z-o'zini baholash, o'zini ifoda etish, mustaqil o'rganish, axborotni qayta ishlash kabi zamonaviy ko'nikmalar shakllanadi. Shuningdek, bu yondashuvlar darsda fanlararo bog'liqlikni kuchaytiradi.

1 А.А.Остапенко. Поддаются ли оцифровке интуиция, импровизация и интонация? // Народное образование, 2029 №6. С – 56.

Texnologiyalashtirish va raqamlashtirish imkoniyatlari. Bugungi ta'lim jarayonida sun'iy intellekt, interaktiv vositalar va moslashuvchan algoritmlar yordamida improvizatsiyani qo'llab-quvvatlash imkoniyatlari kengaymoqda. Quyidagi yo'nalishlar diqqatga sazovor:

Adaptiv ta'lim platformalari. Ushbu platformalarning yaqqol misollari sifatida Khan Academy, Coursera, Duolingo kabi tizimlar tavsiya etiladi. Bu platformalar o'quvchining javoblariga qarab yangi topshiriqlar va yo'nalishlar taklif qiladi. Bu – raqamli improvizatsiyaning bir shakli bo'lib, oldindan tayyor ssenariyga emas, balki o'quvchining individual ehtiyojlariga mos ravishda ishlaydi.

Interaktiv ta'lim vositalari. Bugungi kunda davriy ehtiyojlar asosida ta'limdagi imkoniyatlarning kengayishi bilan zamonaviy texnologiyalar qatoriga kiruvchi smart doskalar, mobil ilovalar, virtual sinflar o'qituvchiga dars jarayonida tezkorlik bilan o'zgartirish kiritish, materialni vizual yoki ovozli shaklda taqdim etish imkonini beradi. Bu esa moslashuvchan o'qitish muhitini shakllantiradi.

Simulyatsiya va virtual haqiqat texnologiyalari. Bu texnologiyalar yordamida o'quvchilar turli stsenariylar asosida o'z harakatlarini sinab ko'radilar. O'qituvchi esa bu stsenariylarni real vaqtda o'zgartirib, turli natijalarni hosil qilishi mumkin. Bu esa nazorat ostida improvizatsiya qilish imkonini yaratadi.

Sokratik dialogni sun'iy intellekt bilan integratsiyalash. Bu jarayon biroz murakkablik talab etsa-da, bugungi kunda jarayonni boshqarishdagi improvizatsion munosabatlarda AI-chatbotlar orqali talabalar bilan savol-javob asosida muloqot qilish, kritik fikrlashni rivojlantirish mumkin. Bu texnologiya o'qituvchining improvizatsion savollarini modellashtirish imkonini beradi.[2] Misol uchun, ushbu bot orqali tarixiy shaharlarning vujudga kelishi, hududiy muammolari va imkoniyatlari, davlatlarning o'tmishdagi mustamlakachilik siyosati yoki milliy ozodlik harakati haqida, hamda bu jarayondagi tarixiy qahramonlar va hukmdorlar to'g'risida ma'lumot olish qiziqarli hisoblanadi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Improvizatsion boshqaruv deb o'quv faoliyatining bunday usullari ataladi, unda oraliq vazifalarning yechim yo'llari avvaldan noma'lum bo'ladi. Didaktikada improvizatsion metodlarning ikki katta guruhi ajratiladi. Bularga barcha evristik va muammoli metodlar kiradi. Ular orqali qanday murakkab yo'l bilan natijaga erishilishi va o'qituvchi o'quvchilar bilan birga qancha boshi berk holatlarni yengib o'tishini oldindan aytib bo'lmaydi. Improvizatsion metodga eng mashhur misol – bu Sokrat suhbati (yoki sokratik dialog) bo'lib, u pedagogik jarayonning tashkiliy shakli sifatida xizmat qiladi. Bu metod orqali talabaning O'zbekiston tarixiga oid bilimlarini mantiqiy fikrlar asosida, qisqa savol-javoblar orqali tez va samarali baholash imkoni paydo bo'ladi.

Garchi "sokratik" suhbatda bosqichma-bosqichlik (rozi bo'lish, shubha, dalillash) mavjud bo'lsa-da, u mazmunan improvizatsion bo'lib, uni algoritmlashtirish yoki dasturlashtirish mumkin emas. Suhbatni olib boruvchi shaxs suhbatdoshining javoblarini faqat taxmin qilishi mumkin, lekin ularni aniq bilmaydi. Shu sababli keyingi savollarni oldindan rejalashtirib bo'lmaydi. Shunga qaramay, pedagogik improvizatsiyani to'liq raqamlashtirish bir qator muammolarga olib keladi.

Empatiya va hissiy sezgirlikning yo'qligi. Bu jarayon talabalar o'rtasida hissiy kelishmovchiliklar yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. O'qituvchi esa bu holatlarni umumlashtirib boshqarish uchun improvizatsion mahoratga ega bo'lishi zarur.

Insoniylik va intuitiv qaror qabul qilish imkoniyatining cheklanishi. Intuitiv qaror qabul qilish – tuzatish, tezkor va samarali yechim topish jarayonidir. Agar insoniylik va intuitiv boshqaruv bo'lmasa, qaror qabul qilish jarayoni sekinlashadi va murakkablashadi. Bu esa muhim afzallikdan voz kechish, biroq mas'uliyatni kechiktirmasdan o'z zimmasiga olish zaruratini keltirib chiqaradi.

Ijodiy yondashuvning standartga tushib qolish xavfi. Agar ijodiy yondashuv qat'iy standartlar ichida qolib ketsa, yangi va innovatsion g'oyalar paydo bo'lishi cheklanadi. Bu esa tashkilotning ijtimoiy barqarorligini pasaytiradi va yangi bozor imkoniyatlarini boy berishga olib keladi. Bundan kelib chiqadiki, pedagogik improvizatsiya – bu ilmiy-ijodiy qarashlar umumiyligidan kelib chiqib, o'qituvchining o'quv jarayonida oldindan rejalashtirilmagan, vaziyatga qarab spontan (o'zi paydo bo'lgan holda), ammo maqsadga muvofiq tarzda qarorlar chiqarishi, savollar berishi, o'quvchini rag'batlantirishi, muammoni hal etish yo'llarini birga izlashidir. Bunda ijodkorlik, tajriba, kuzatuvchanlik va noan'anaviy yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi.

Dars jarayoni – ikki tomonlama ilmiy va ijodiy qarashlarni umumiylashtirish deb hisoblanadi. Shu o'rinda dars jarayonini texnologiyalashtirishning muhim omillari mavjud. Texnologiyalashtirish deganda, belgilangan qoidalar, algoritmlar, uslublar asosida tizimli harakatlarni tashkil etish tushuniladi. Bu o'z ichiga o'quv jarayonining standartlashtirilishi, dars jarayonining ssenariylashtirilishi, raqamli vositalardan foydalanish (masalan, smart doskalar, onlayn platformalar) kabi jarayonlarni oladi.

2 Остапенко А.А. "Из чего состоит педагогическое мастерство учителя" – М.: Научно-исследовательский институт школьных технологий, 2019. – 28 с. (Лекции по системной и образной педагогике. Выпуск 20).

Shu o'rinda "Improvizatsiya va texnologiya birga bo'lishi mumkinmi?" degan haqli savol tug'iladi. Bu savol ziddiyatli tuyuladi, chunki:

- Improvizatsiya – oldindan belgilab bo'lmaydigan ijodiy harakat;
- Texnologiyalashtirish – qat'iy reja va algoritm asosidagi yondashuv.

Ammo bu ikki tushuncha qarama-qarshi emas, balki bir-birini to'ldiruvchi bo'lishi mumkin. Biroq qanday qilib pedagogik improvizatsiyani texnologiyalashtirish mumkin? Quyida ushbu jarayonga ilmiy va ijodiy yondashuv izohlanadi.

Imkoniyat maydonini yaratish orqali – ya'ni raqamli texnologiyalar yordamida o'qituvchi improvizatsiya qilishga qulay sharoit yaratadi. Quyida jarayonga kirishish uchun misollar keltiriladi: Misol: interaktiv doskada o'quvchining javobiga qarab matn, rasm, video yoki testni real vaqtda chiqarish. Masalan, O'zbekiston tarixining xonliklar davri davlat boshqaruviga oid chizmalar, rasmlar; Misol: chat-botlar yordamida sokratik dialog o'ynash. Masalan, O'zbekiston tarixida ta'lim islohotlarining rivojlanish konsepsiyalarini tahlil etish: "ha", "yo'q", "ahamiyati yo'q" deb javob beradigan dastur orqali.

Adaptiv o'quv platformalari orqali – bu jarayonda sun'iy intellekt asosida ishlaydigan tizimlar (masalan, Khan Academy, Duolingo) o'quvchining javobiga qarab savollar darajasini moslashtiradi. Bu ham bir turdagi raqamli improvizatsiyadir. Virtual muhitlarda simulyatsiya jarayonini yuzaga keltirish va uni boshqarish orqali – o'quvchilar va o'qituvchilar virtual real muhitda turli ssenariylar asosida (lekin natijasi ochiq qolgan) mashqlar bajaradi. Bu metod nazorat ostidagi improvizatsiyani amalga oshirishga imkon beradi. Shunga qaramay, texnologiyalar inson hissiyoti, empatiya va noan'anaviy qarorlarni to'liq almashtira olmaydi. O'qituvchining improvizatsiyasi bu – bilimdan tashqari ichki sezgi, yurakdan kelgan yondashuv, o'quvchi ruhiyatini tushunish hamdir. Buni raqamli tizimlar hali to'liq takrorlay olmaydi. Demak, pedagogik improvizatsiyani ma'lum darajada texnologiyalashtirish va raqamlashtirish mumkin – asboblar yordamida sharoit yaratish, o'yinlar, moslashuvchan platformalar, sun'iy intellekt yordamida yondashuvni talab etadi. Ammo to'liq raqamlashtirish uni jonli va ijodiy mohiyatidan ayirishi mumkin. Shuning uchun u o'qituvchi tajribasi va texnologiyaning uyg'unligida samarali ishlaydi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Tarix fanining o'qitilishida, ayniqsa O'zbekiston tarixining tarixiy taraqqiyotiga oid masalalarda pedagogik improvizatsiyaning muhimligi – bu o'qituvchining kasbiy mahorati va ijodkorligini namoyon etadigan jarayondir. Raqamli texnologiyalar bu jarayonni qo'llab-quvvatlashi, yanada samarali qilishga yordam berishi mumkin. Ammo texnologiyalashtirish inson omili o'rnini to'liq egallay olmaydi. Shuning uchun pedagogik improvizatsiyada texnologiyalardan vosita sifatida foydalanish lozim, ammo asosiy rolni inson tafakkuri va hissiyotiga berish zarur degan xulosa qilinadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Alla Vinnichuk. "Pedagogical Improvisation in Forming Professional Competence of the Future Teachers-Philologists" // Society. Integration. Education. Proceedings of the International Scientific Conference. Volume I, 27 May 2022. – B. 284–294.
2. Д. Блюдов. "Педагогическая импровизация на уроках сценической речи" // Педагогические науки. International Journal of Humanities and Natural Sciences, 2024, № 11–1 (98). – С. 76–78.
3. Сластенин Виталий Александрович, Исаев Илья Федорович, Шиянов Евгений Николаевич. Педагогика: учебное пособие.
4. Е. П. Турбина. "Роль педагогической импровизации в процессе педагогического творчества будущего учителя" // Профессиональное педагогическое образование. 2017. – С. 84–85.
5. Гузеев В. В., Остапенко А. А. Полный системный классификатор методов образования // Педагогический журнал Башкортостана. 2011. – № 2 (33). – С. 8–22.
6. А. А. Остапенко. "Поддаются ли оцифровке интуиция, импровизация и интонация?" // Народное образование. 2019, № 6. – С. 55.
7. Остапенко А. А. Из чего состоит педагогическое мастерство учителя. – М.: Научно-исследовательский институт школьных технологий, 2019. – 28 с. (Лекции по системной и образной педагогике. Вып. 20).
8. X. I. Ibragimovich. "Bo'lajak o'qituvchilarda raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish – XXI asrning dolzarb muammosi sifatida" // Raqamli ta'limning zamonaviy tendensiyalari va ularni ta'lim-tarbiya jarayoniga tadbiq qilish yo'llari mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. 25-oktabr 2023-yil. – B. 5.
9. Ergasheva M. "Pedagogik oliy ta'limda talabalar o'quv faoliyatini tashkil etishda improvizatsiyaning qo'llanilishiga doir munosabatlar" // Advances in Science and Education. 2025. Vol. 01. № 03. – P. 64.

| | |
|---|---|
| 13.00.00 | Pedagogika fanlari |
| 13.00.01 | Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi |
| 13.00.02 | Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo‘yicha) |
| 13.00.03 | Maxsus pedagogika |
| 13.00.04 | Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.05 | Kasb-hunar ta’limi nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.06 | Elektron ta’lim nazariyasi va metodikasi (ta’lim sohalari va bosqichlari bo‘yicha) |
| 13.00.07 | Ta’limda menejment |
| 13.00.08 | Maktabgacha ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.09 | Ijtimoiy pedagogika |
| 07.00.00 | Tarix fanlari |
| 19.00.00 | Psixologiya fanlari |
| 01.00.00 | Fizika-matematika fanlari |
| 02.00.00 | Kimyo fanlari |
| 03.00.00 | Biologiya fanlari |
| 09.00.00 | Falsafa fanlari |
| 10.00.00 | Filologiya fanlari |
| 11.00.00 | Geografiya fanlari |

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2025. №7**



© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.



"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C–5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
**Litsenziya raqami: № 136361**.



**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.